

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/30.12.2019.Far.32.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

SAFAROVA DIYORA TOLIBOVNA

**GIPOTENZIV TA'SIRGA EGA QURUQ EKSTRAKT OLISH VA UNING
ASOSIDA KAPSULA TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

15.00.01 – dori texnologiyasi

**FARMATSEVTIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of philosophy dissertation (PhD)

Safarova Diyora Tolibovna

Gipotenziv ta'sirga ega quruq ekstrakt olish va uning asosida kapsula
texnologiyasini ishlab chiqish 3

Сафарова Диёра Толибовна

Получение сухого экстракта гипотензивного действия и разработка
технологии капсул на его основе..... 21

Safarova Diyora Tolibovna

Obtaining a dry extract of hypotensive action and developing capsule
technology based on it..... 39

E'lon qilinadigan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 43

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/30.12.2019.Far.32.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

SAFAROVA DIYORA TOLIBOVNA

**GIPOTENZIV TA'SIRGA EGA QURUQ EKSTRAKT OLISH VA UNING
ASOSIDA KAPSULA TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

15.00.01 – dori texnologiyasi

**FARMATSEVTIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Far74 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent farmatsevtika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.pharmi.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maksudova Firusa Xurshidovna
farmatsevtika fanlar doktori, dotsent.

Rasmiy opponentlar:

Nazarova Zarifa Alimjanovna
farmatsevtika fanlari doktori, professor.

Xalilov Ravshanjon Muratjanovich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim.

Yetakchi tashkilot:

O'zR SSV huzuridagi «Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi» Davlat muassasasi.

Dissertatsiya himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi DSc.04/30.12.2019.Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil «29» oktabr soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100015, Toshkent sh., Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy. Tel.: (+99871) 256-37-38; faks: (+99871) 256-45-04; e-mail: info@pharmi.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent farmatsevtika instituti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (62 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100015, Toshkent sh., Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy. Tel.: (+99871) 256-37-38.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «15» oktabr kuni tarqatildi.
(2024 yil «15» oktabr dagi 62 raqamli reyestr bayonnomasi).



K.S. Rizayev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d.

Y.S. Kariyeva

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.d., professor

F.F. Urmanova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmi seminar raisi,
farm.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti bilan hamkorlikda o‘tkazilgan tadqiqotda, so‘nggi 40 yil mobaynida, dunyo bo‘yicha yuqori qon bosimidan aziyat chekuvchi insonlar soni qariyb ikki martaga ortib, 1,1 mlrd. kishiga yetgan. Bunda statistik ma‘lumotlarga ko‘ra 80% bemorlar o‘simlik xomashyosidan olingan tinchlantiruvchi va gipotenziv ta‘sirga ega dori vositalarni qabul qiladilar. Shuning uchun, ushbu kasallikni davolashda qo‘llaniladigan mahalliy dorivor o‘simlik xomashyosi asosida yangi, gipotenziv dori vositalari texnologiyalarini ishlab chiqish, ularning sifat nazoratini amalga oshirish, farmakologik faolligi va bezararligini aniqlash hamda tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda farmatsevtika amaliyotida dorivor o‘simliklar xomashyolari asosida tinchlantiruvchi va gipotenziv ta‘sirga ega zamonaviy dori vositalari, biologik faol qo‘shimchalar assortimentini kengaytirish, ularni yuqori turuvchi tashkilotlarda qayd etish uchun me‘yoriy hujjatlarni rasmiylashtirish, olingan mahsulotlarni ishlab chiqarishni korxonalar amaliyotiga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada o‘simlik tabiatiga ega original murakkab tarkibli dori vositalar tarkibi va texnologiyasini ilmiy asoslash, sifat me‘yorlarini xalqaro talablarga muvofiq belgilash, terapevtik samaradorligi, bezararligi hamda turg‘unligini ta‘minlashga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda mahalliy dorivor o‘simliklarining farmakologik skriningini o‘tkazish, turli kasalliklarda qo‘llaniladigan optimal tarkibli kombinatsiyalarni yaratish, ulardan biologik faol moddalarni turli agregat holatidagi ekstraktlar ko‘rinishida ajratib olish hamda qo‘llashga qulay shakldagi preparatlar va biologik faol qo‘shimchalar texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 22-maqсадida «Farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 baravar ko‘paytirish va mahalliy bozorni ta‘minlash darajasini 80 foizga yetkazish»¹ kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada, mahalliy o‘simlik xomashyosi asosida yurak qon tomir va gipertoniya kasalliklarini davolashda qo‘llaniladigan, iqtisodiy jihatdan qulay farmatsevtik mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish, xalqaro talablar asosida standartlash, farmakoterapevtik faolligini isbotlash hamda farmatsevtik korxonalar tomonidan ishlab chiqilishini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PQ–251-son «Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022-yil 26-oktyabrdagi PQ-411-son «Aholini sifatli dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta‘minlash yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi PF–55-son «2022–2026-yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini jadal

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni.

rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dorivor o‘simliklar tarkibidan biologik faol moddalarni ajratib olish, ekstrakt, qiyom va balzamlar texnologiyalarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish, tibbiyot amaliyotiga joriy etish borasidagi S.M.Maxkamov, M.U.Usubbayev, U.M.Azizov, X.K.Jalilov, Z.A.Nazarova, X.M.Yunusova, Y.S.Kariyeva, Sh.N.Madrahimov kabi o‘zbek olimlarining ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega.

Dunyo miqyosida bir qator olimlar o‘simlik ekstraktlarini olish, ularning aminokislotali va element tarkibini o‘rganish, farmakologik faolligini aniqlash, saqlanish muddatini belgilash hamda ulardan substansiya sifatida foydalanib, dori preparatlari va ozuqaga qo‘shimchalarni yaratish borasida P.C.Oliveira, S.A.Danilov, S.Y.Shtriqol, A.G.Müller, W.S.Linke, W.A.Klaus, E.S.Koval, V.V.Bezzubchak, D.M.Carneiro, R.C.Freire, R.S.Eshwarappa, A.Velmurugan, E.Noumi, E.B.Гладух, И.Ю.Потороко, В.В.Гордеева, И.Ю.Митрофанова, С.В.Аверьянов, Л.Н.Савченко va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ahamiyatlidir.

Mazkur dissertatsiya ishi *Menthae piperitae* L., *Leonuri turkistanicus* Krecz. et Kupr., *Crataegi sanguineae* Pall., *Equiseti arvensis* L. o‘simliklar kompozitsiyasidan gipotenziv ta’sirga ega quruq ekstrakt olish, standartlash, ushbu ekstrakt asosida kapsula shaklidagi biologik faol qo‘shimcha tarkibi va texnologiyasini ilmiy asoslash, sifat me‘yorlarini belgilash, turg‘unligini aniqlash va tibbiyot amaliyotida qo‘llashga tavsiya etish yuzasidan olib borilgan birinchi ilmiy izlanish hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent farmatsevtika institutining «Mahalliy dorivor o‘simlik va koordinatsion birikmalar asosida original dori vositalarini ishlab chiqish va tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Mahalliy dorivor o‘simliklar (*Menthae piperitae* L., *Leonuri turkistanicus* Krecz. et Kupr., *Crataegi sanguineae* Pall., *Equiseti arvensis* L.) kompozitsiyasidan gipotenziv ta’sirga ega quruq ekstrakt olish va uning asosida kapsula shaklidagi biologik faol qo‘shimcha texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

adabiyotlar tahlili hamda marketing izlanishlar natijasida tabiiy xomashyolar asosida gipotenziv ta’sirga ega dori vositalarining assortimentini kengaytirishning dolzarbligini ilmiy asoslash;

dorivor o‘simlik xomashyolaridan biologik faol moddalarning ajralib

chiqishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish natijalariga asosan quruq ekstrakt texnologiyasini ishlab chiqish;

amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga asosan olingan quruq ekstraktning sifatini baholash, nam yutish kinetikasini aniqlash hamda aminokislotali va element tarkibini o'rganish;

«Giposedaf» quruq ekstrakti asosida kapsula shaklidagi BFQning tarkibini tanlash va texnologiyasini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish, sifat me'yorlarini belgilash;

olingan quruq ekstrakt va uning asosidagi kapsula shaklidagi BFQning saqlanish sharoiti va yaroqlilik muddatini aniqlash;

gipotenziv ta'sirga ega quruq ekstrakt uchun me'yoriy hujjatlarni tayyorlash va ishlab chiqarish hamda tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat olish maqsadida O'zR SSV huzuridagi «Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi Markazi» Davlat muassasiga taqdim etish;

kapsula shaklidagi biologik faol qo'shimcha uchun me'yoriy hujjatlarni tayyorlash va tasdiqlatish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tibbiyot amaliyotida keng qo'llaniladigan qalampir yalpiz (*Méntha piperíta* L.), turkiston arslonquyrug'i (*Leonúrus turkistanica* L.), to'q qizil do'lana (*Crataegus sanguineae* Pall.), dala qirqbo'g'imi (*Equiseti arvensis* L.) dorivor o'simlik xomashyolari yig'masidan olingan «Giposedaf» quruq ekstrakti va uning asosida ishlab chiqilgan kapsula shaklidagi biologik faol qo'shimcha olingan.

Tadqiqotning predmeti mahalliy o'simlik xomashyolaridan quruq ekstrakt va uning asosida kapsula shaklidagi biologik faol qo'shimcha olish texnologiyasini ishlab chiqish, sifat me'yorlarini belgilash, yaroqlilik muddatini aniqlash hamda tegishli me'yoriy hujjatlarni tayyorlashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni olib borishda zamonaviy texnologik, fizikaviy, fizik-kimyoviy, biofarmatsevtik, farmakologik usullardan va zamonaviy kompyuter dasturlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor qalampir yalpiz, turkiston arslonquyrug'i, to'q qizil do'lana va dala qirqbo'g'imi o'ti xomashyolari kompozitsiyasidan quruq ekstrakt olish texnologiyasi ishlab chiqilgan, ekstraksiya jarayonining maqbul sharoitlari aniqlangan;

ilk bor «Giposedaf» quruq ekstraktining nam yutish kinetikasi tashqi muhit namligi hamda namuna yuzasiga bog'liqligi isbotlangan, uning makro- va mikroelement hamda aminokislotali tarkibi zamonaviy usullar yordamida aniqlangan;

«Giposedaf» quruq ekstraktining texnologik va struktura-mexanik xossalarini aniqlash natijasida kapsula shaklidagi BFQ tarkibi tanlangan va maqbul texnologiya ishlab chiqilgan;

«Giposedaf» quruq ekstrakti va uning asosidagi BFQ ning sifat va miqdor ko'rsatgichlari aniqlanib, me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan talablarga muvofiqligi isbotlangan;

«Giposedaf» quruq ekstraktining gipotenziv tinchlantiruvchi va diuretik ta'siri bo'yicha solishtirma preparatlarga bioekvivalentligi ham toksik emasligi tajribalarda isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

«Giposedaf» quruq ekstrakti va uning asosida ishlab chiqilgan kapsula shaklidagi biologik faol qo'shimchanning saqlanish sharoitlari va yaroqlilik muddatlari asoslangan;

«Giposedaf» quruq ekstraktini olish texnologiyasi sanoat miqyosida sinovdan o'tkazilgan va olingan natijalar asosida tajriba-sanoat reglamenti ishlab chiqilib, tasdiqlangan;

gipotenziv ta'sirga ega «Giposedaf» quruq ekstraktini ishlab chiqish va tibbiyot amaliyotida qo'llash uchun ruxsat olish maqsadida tegishli me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda olingan natijalar zamonaviy fizik-kimyoviy (yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, spektrofotometriya, induktiv bog'langan plazmali mass-spektrofotometriya), texnologik, biofarmatsevtik, farmakologik tekshiruvlar asosida hamda ishlab chiqilgan texnologiyalar tajriba sanoat ishlab chiqarish sharoitida sinovdan o'tganligi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qalampir yalpiz barglari (*Folia Menthae piperitae* L.), turkiston arslonquyruq'i o'ti (*Herba Leonuri turkistanicus* Krecz. et Kupr.), to'qqizil do'lana mevasi (*Fructus Crataegi sanguineae* Pall.), dala qirqbo'g'imi o'ti (*Herba Equiseti arvensis* L.) mahalliy o'simlik xomashyolaridan gipotenziv ta'sirga ega quruq ekstrakt olishning mo'tadil usulini ishlab chiqilganligi, uning asosida kapsula shaklidagi ozuqaga qo'shimchanning tarkibi tanlanib, texnologiyasi yaratilganligi hamda ularning sifat me'yorlari belgilanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan quruq ekstrakt uchun tajriba sanoat reglamenti tasdiqlanganligi, shuningdek MCHJ «Samarkand-England Eco-Medical» qo'shma korxonasi bilan hamkorlikda me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilganligi va tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish maqsadida O'zR SSV huzuridagi «Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi Markazi» Davlat muassasiga taqdim etilganligi, kapsula shaklidagi biologik faol qo'shimcha uchun esa Texnik shartlari va uni ishlab chiqarish bo'yicha Texnologik yo'riqnoma ishlab chiqilganligi hamda tasdiqlanganligi bilan izohlanadi. Bu esa gipotenziv ta'sirga ega iqtisodiy jihatdan qulay preparatlar va ozuqaga qo'shimchalar xilma-xilligini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gipotenziv ta'sirga ega quruq ekstrakti olish va uning asosida kapsula texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

«Giposedaf» quruq ekstrakti uchun korxonada farmakopeya maqolasi loyihasi O'zR SSV huzuridagi «Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi Markazi» Davlat muassasiga ro'yxatdan o'tkazish uchun topshirilgan («Farmatsevtika mahsulotlari

xavfsizligi Markazi» Davlat muassasining 2024-yil 19-apreldagi 41/11-5513-son xati, Sogʻliqni saqlash vazirligining 2018-yil 15-oktyabrdagi 8n-3/280-son xati). Ushbu meʼyoriy hujjatning tasdiqlanishi samarali gipotenziv taʼsirga ega dori vositasini ishlab chiqarish imkonini beradi;

kapsula shaklidagi «Giposartaf» biologik faol qoʻshimcha uchun Texnik shartlar (TSh 310619568-004:2024) va uni ishlab chiqarish boʻyicha Texnologik yoʻriqnoma (TY 310619568-004:2024) Oʻzbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qoʻmitasi tomonidan tasdiqlangan. Natijada «BIO BOOST HOLD» MCHJda kapsula shaklidagi ozuqaga qoʻshimchani ishlab chiqarish imkonini bergan;

«Giposedaf» quruq ekstrakti uchun tajriba sanoat reglamenti MCHJ «Samarkand-England Eco-Medical» qoʻshma korxonasi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (OPR 03874/04620617-1098-2024). Mazkur hujjatning tasdiqlanishi natijasida gipotenziv xususiyatga ega dori vositasi uchun meʼyoriy hujjatlarning oʻrnatilgan tartibda ishlab chiqilishi va roʻyxatga olinishi taʼminlangan;

oʻtkazilgan klinik oldi sinovlar natijasida «Giposedaf» quruq ekstraktining spetsifik farmakologik faolligi hamda oʻtkir zaharli emasligi isbotlangan (Sogʻliqni saqlash vazirligining 2018-yil 15-oktyabrdagi 8n-3/280-son xati). Natijada ishonchli gipotenziv faollikga ega bezarar preparatlar va biologik faol qoʻshimchalarni ishlab chiqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining abrobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, toʻrtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 113 betni tashkil etgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida oʻtkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan ilmiy natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Oʻsimlik xomashyosi asosida gipotenziv taʼsirga ega dori vositalarini yaratishdagi ahamiyati hamda kapsula texnologiyasining istiqbollari**» nomli birinchi bobida gipertoniyaning kelib chiqish sabablari, bugungi kundagi kasallanish statistikasi, ushbu patologiyani davolashda qoʻllaniladigan

dorivor o‘simliklar haqida ma’lumot keltirilgan. Shuningdek, o‘simlik xomashyolarini biologik faol qo‘shimchalarni ishlab chiqishdagi o‘rni va kapsula dori shaklining afzalliklari hamda ularni qo‘llash istiqbollari yoritilgan. Ushbu bobda O‘zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozoridagi gipotenziv dori vositalarining marketing tahlili natijalari ham bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «Gipotenziv ta’sirga ega quruq ekstrakt olish texnologiyasini ishlab chiqish» deb nomlangan ikkinchi bobida gipotenziv ta’sirga ega ekstrakt texnologiyasini ishlab chiqish, ekstraksiya jarayoniga ta’sir qiluvchi barcha omillarni ilmiy asoslangan holda tanlashga alohida e’tibor berildi. Olingan quruq ekstraktning sifat me’yorlarini belgilash, gigroskopiklik darajasini hamda element va aminokislotali tarkibini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Farmakologlar tavsiyasiga ko‘ra «Giposedaf» quruq ekstraktini olish uchun xomashyo bazasi yetarli bo‘lgan va tegishli VFMLari tasdiqlangan, quyidagi 4 ta o‘simlik: to‘qqizil do‘lana mevasi, turkiston arslonquyruq‘i o‘ti, qalampir yalpiz barglari, dala qirqbo‘g‘imi o‘ti xomashyolaridan foydalanildi va yig‘ma uchun ular 1:1:2:3 nisbatda olindi. Ajratma mahalliy farmatsevtika korxonalarida keng qo‘llaniladigan matseratsion-sirkulyatsiya usulida olindi.

«Giposedaf» quruq ekstraktini olish texnologiyasini ishlab chiqishda samarali ajratuvchi tanlash borasida etil spirtining turli konsentratsiyalari bilan tajribalar o‘tkazildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, 60 va 80% etil spirt qo‘llanilganda ekstraktiv moddalar unumi eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan bo‘lsa, flavonoidlarning maksimal miqdori esa 70% etanolda ajralib chiqdi. Shu sababli «Giposedaf» quruq ekstraktini olishda xomashyolar yig‘masini 70% etil spirti bilan ekstraksiya qilish lozim deb topildi (1-rasm).



1-rasm. O‘simlik xomashyolari yig‘masidan ajralib chiqqan flavonoidlar va ekstraktiv moddalar unumiga etil spirti konsentratsiyasining bog‘liqligi

O‘simlik xomashyolaridan quruq ekstrakt olishda keyingi asosiy omillardan biri ularning maydalik darajasi bo‘lib, tajribalar olib borish uchun o‘simlik xomashyolari avval alohida maydalandi va teshiklari diametrining o‘lchami 2, 4, 6, 8, 10 mm bo‘lgan elaklardan o‘tkazildi.

Olingan natijalarga ko‘ra maydalik darajasi 2–3, 4–6, 6–8, 8–10 mm oralig‘idagi o‘simlik xomashyolarida, xomashyoda saqlanishiga nisbatan flavonoidlar unumi 78,6%, 92,5%, 83,7%, 81,5% larni ko‘rsatdi. Ya‘ni keyingi tadqiqotlar uchun o‘simlik xomashyolari yig‘masidan flavonoidlarni 70% li etil spirti yordamida ekstraksiya qilishda o‘simliklarning maydalik darajasi 4–6 mm bo‘lishi kerakligi belgilandi.

O‘simlik xomashyolari yig‘masidan flavonoidlarni ajratib olishga haroratning ta‘sirini o‘rganish uchun quyidagi haroratlar ostida ekstraksiya olib borildi: 20±2 °C, 30±2 °C, 40±2 °C, 50±2 °C. Olingan ekstraktning quruq qoldig‘i va unumi tahlil qilinishi natijasida «Giposedaf» quruq ekstraktini olishda o‘simlik xomashyolari yig‘masini 20±2 °C (xona harorati) harorat ostida ekstraksiya qilish taklif etildi.

O‘simliklar yig‘masini ekstraksiya qilishda vaqt o‘tishi bilan flavonoidlar unumining o‘zgarishini aniqlashda olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

Tahlil natijalari asosida o‘simlik xomashyolari yig‘masini 70% li etil spirti bilan flavonoidlarni ekstraksiya qilish 4 soatda ikki marotaba bo‘lishi kerakligi aniqlandi.

1-jadval

O‘simlik xomashyosidan flavonoidlarni 70% etil spirti bilan ekstraksiya jarayonining dinamikasi

Tindirish vaqti, soat	Xomashyoda saqlanishga nisbatan flavonoidlar unumi, %					
	1-fazalar ta‘siri	2-fazalar ta‘siri	3-fazalar ta‘siri	4-fazalar ta‘siri	5-fazalar ta‘siri	6-fazalar ta‘siri
1	1,2	1,4	2,4	2,3	1,9	0,4
2	3,4	2,7	5,44	7,2	4,5	0,9
3	6,2	6,3	12,8	7,2	4,5	0,9
4	12,4	12,6	12,8			
5	26,5	23,4				
6	46,4	23,4				
7	46,4					

O‘simlik xomashyolari yig‘masidan flavonoidlar ekstraksiya jarayonining samaradorligini yanada oshirish maqsadida harakatdagi ekstragent va doimiy aralashtirishli kabi dinamik ekstraksiya usullari o‘rganildi. 2-jadvaldagi ma‘lumotlar asosida har ikki dinamik usul jarayon uchun sarflanayotgan vaqt bir xil (10 soat) bo‘lib, matsratsiya usuliga sarflangan vaqtga (18 soat) nisbatan deyarli ikki marta kamligi isbotlandi.

O‘simlik xomashyosi yig‘masidan flavonoidlarni 70% etil spirti bilan ajratib olishda ekstraksiya usullarining samaradorligi

Ekstraksiya turi	Fazalar-ning ta’sir tartibi	Xomashyo og‘irligiga nisbatan ekstraktiv moddalarning unumi, %	Ekstraksiya jarayoni sarflangan vaqt, soat	Erituvchi sarfi (gidromodul)
Matseratsiya - sirkulyatsiya	1	6,5	4	1:4
	2	3,6	3	1:2,5
	3	1,7	3	1:2,5
	4	0,7	2	1:2,5
Doimiy aralashtirish usuli	1	6,2	4	1:10
	2	3,4	3	1:8,5
	3	2,1	3	1:7
	4	0,9	2	1:7
Matseratsiya usuli	5 marta ekstraksiya	11,4	18 (umumiy)	1:14 (umumiy)

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida «Giposedaf» quruq ekstraktini olishda o‘simlik xomashyolari yig‘masini 70% li etil spirti bilan matseratsiya-sirkulyatsiya usuli bilan 3 marta xona haroratida ekstraksiya qilib olish tanlab olindi.

Ekstrakti yog‘simon moddalardan tozalash uchun 1 kg dan olingan o‘simlik yig‘masi 70% li etil spirti bilan 3 martadan xona haroratida ekstraksiya qilindi. Olingan ekstraktlar birlashtirildi, filtrlandi va quyuq massagacha quyultirildi, so‘ngra 1:1 nisbatda suv bilan aralashtirildi. Aralashmaga xloroform, etilatsetat, ekstraksion benzin bilan besh martadan ishlov berildi. Olingan ajratmalar doimiy og‘irlikga qadar quyultirildi va tahlil qilindi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, etilatsetat va xloroformda ishlov berilganda flavonoidlar yo‘qolishi ancha yuqori bo‘ldi. Shu sababli keyingi izlanishlarda o‘simliklar yig‘masidan olingan ekstrakti ekstraksion benzin yordamida yog‘simon moddalardan tozalash tanlab olindi.

Yog‘simon moddalardan tozalangan ekstrakt bir nechta usullarda quritildi. Sublimatsion quritish jihozidan boshqa jihozlarda ekstraktlarni quritish juda qiyin kechdi. Purkab quritish jihozida ekstrakti quritishga muvaffaq bo‘linsa-da, lekin uskunaning chiqish havosi 70–80°C harorat ostida quruq massa mumsimon bo‘lib, yig‘gich devorlariga yopishib qoldi. Mumsimon massa xona haroratigacha sovitilgach, massa qotdi va qirib olindi. Bu degani purkab quritish uskunasi ham yig‘madan olingan ekstrakti quritishga to‘g‘ri kelmasligidan dalolat beradi. Bu holatni ekstrakt tarkibida kichik molekulali uglevodlarning ko‘pligi bilan izohlash mumkin.

«Giposedaf» quruq ekstraktini olishda u yog‘sizlantirilgach, liofil uskunada «-85±2° C» haroratda quritish taklif etildi.


«Giposedaf» quruq ekstraktining sifat ko‘rsatkichlari «Ekstraktlar» (O‘zR DF I nashri), «Extracts» (European Pharmacopoeia, 9 th edition) farmakopeya maqolalari talablariga muvofiq aniqlandi. Olingan natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

«Giposedaf» quruq ekstraktining sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash natijalari

No	Aniqlangan ko‘rsatkich	MH bo‘yicha me‘yorlar	Natijalar
1	Tashqi ko‘rinishi	QE o‘ziga xos hidga ega, och qo‘ng‘ir rangli, gigroskopik kukun	mos
2	Chinligi	Tekshiriluvchi eritmaning mos keladigan nuqtasi uchun Rf qiymati standart eritmaning xromatogrammasida olingan Rf nuqtasiga mos kelishi kerak.	mos
3	Quritilganda yo‘qotilgan og‘irlik	5% ko‘p emas	4,32%
5	Og‘ir metallar	0,01% ko‘p emas	mos
6	Miqdori	flavonoidlar yig‘indisining miqdori rutinga nisbatan 2,0% dan kam bo‘lmasligi kerak; flavonoidlar yig‘indisining miqdori lyuteoniga nisbatan 2,0% dan kam bo‘lmasligi kerak; fenol kislotalar yig‘indisining gall kislotasiga nisbatan 0,01% dan kam bo‘lmasligi kerak; glikozidlar yig‘indisining glitsirizinga nisbatan 0,001% dan kam bo‘lmasligi kerak.	2,72% 2,53% 0,016% 0,0031%
7	Mikrobiologik tozaligi	1 g QE da aerob mikroorganizmlarning umumiy soni 10^4 KOE dan, zamburug‘larning soni – 10^2 KOE dan, safroga chidamli enterobakteriyalar 10^2 KOE dan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Shuningdek, <i>Pseudomonas aeruginosa</i> , <i>Staphylococcus aureus</i> , <i>Escherichia coli</i> uchramasligi kerak. 25 g QE da <i>Salmonella</i> avlodiga mansub bakteriyalar bo‘lmasligi kerak.	mos

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari «Giposedaf» quruq ekstraktining sifat ko‘rsatkichlari me‘yoriy hujjatlarda keltirilgan talablarga muvofiqligidan dalolat beradi.

Quyidagi 2-rasmda «Giposedaf» quruq ekstraktini ishlab chiqarishning jihatli texnologik sxemasi keltirilgan.




1 – bolg'achali tegirmon, 2 – torozi, 3 – ekstraktor, 4 va 13 – o'lchagichlar, 5, 7, 8, 10, 14 va 15 – yig'gichlar, 6 – sovutkich, 9 – press filtr, 11 – sirkulyatsion bug'latish uskunasi, 12 – reaktor, 16 – rotorli bug'latish uskunasi, 17 – liofil quritish uskunasi.


2-rasm. «Giposedaf» quruq ekstraktini ishlab chiqarishning jihazli texnologik sxemasi

Quruq ekstraktning gigroskopikligi Yevropa farmakopeyasi (Ph. Eur. 7.0, vol. 1 general texts 5.11) va O'zR DF (I nashri)da keltirilgan usul yordamida amalga oshirildi. Olingan natijalar 3- va 4-rasmlarda keltirildi.

Tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar «Giposedaf» quruq ekstraktining yuqori gigroskopik xossaga egaligini hamda ushbu xossa tashqi muhitning nisbiy namligi va namuna yuzasi maydoniga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligini isbotladi.



3-rasm. «Giposedaf» quruq ekstraktining nam yutish kinetikasining tashqi muhit namligiga bog‘liqligi



4-rasm. «Giposedaf» quruq ekstrakti nam yutish kinetikasining namuna yuza maydoniga bog‘liqligi

Quruq ekstraktning element tarkibini o‘rganish induktiv bog‘langan plazmali mass-spektrometriya ICP MS usuli yordamida amalga oshirildi. Quruq ekstrakt tarkibidagi elementlar miqdoriy tarkibi (mkg/g) bo‘yicha quyidagicha tasniflandi: makroelement (K – 65 000, Ca – 10 000, Mg – 9100), millielementlar (R – 4000, Na – 4300, Al – 460, Fe – 280, Mn – 53, Zn – 47, Sr-47, Rb-39, V – 32), mikroelementlar (Ti – 13, Cu – 6.9, Ni – 4.10, Li– 2.10, Mo – 1.40, Cr – 1.20, Ag – 1.10, Se – 0.50, Ce – 0.32, Ga – 0.170, Y – 0.150, Nd – 0.130, Sb – 0.110, Sn – 0.076, Th – 0.071, Zr – 0.067, Pt – <0.05, Au – <0.05, Pr – 0.04, Sm – 0.028, nanoelementlar (Gd – 0.18, Ta – <0.01, Tl – <0.01, Eu – 0.01, Dy – 0.01, Er – 0.01, Yb – 0.01, Tb – <0.01, Tm – <0.01, Hf – <0.01, Be – 0.006, Ho – 0.006, In – 0.001). «Giposedaf» quruq ekstraktidagi og‘ir metallar va margimushning amalda aniqlangan miqdorlari O‘zR DF va JSST talablariga to‘liq mos keldi. Quruq ekstraktidagi qo‘rg‘oshin miqdori 0,750 mkg/g, kadmий – 0,012 mkg/g, margimush – 0,10 mkg/g ga teng bo‘ldi. Simob aniqlanmadi.


Izlanishlar natijasida «Giposedaf» quruq ekstrakti tarkibida 20 xildagi, shulardan 10 tasi almashtirib bo‘lmaydigan aminokislotalar borligi aniqlandi. Bunda ko‘p miqdorda aniqlangan aminokislotalardan quyidagilar: gistidin, sistein, tirozin, metionin, valin, asparagin va leysin. Aminokislotalarning umumiy miqdori 29,15 mkg/g ni tashkil qildi. Aniqlangan umumiy aminokislotalar miqdoridan 46,5%

almashtirib bo'lmaydigan va 53,5% esa almashtirib bo'ladigan aminokislotalardir.

Dissertatsiyaning «**Gipotenziv ta'sirga ega kapsula texnologiyasini ishlab chiqish**» deb nomlangan uchinchi bobi kapsula shaklidagi BFQ tarkibini ilmiy asoslash va texnologiyasini ishlab chiqishga, shuningdek, sifat ko'rsatgichlarini amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini belgilashga bag'ishlangan.

Ekstraktning struktura-mexanik ko'rsatgichlarini aniqlash natijasida individual kristallar kengligi 1,87–6,23 mkm va uzunligi 6,41 – 18,69 mkm orasida ekanligi ma'lum bo'ldi. Zarrachalarning o'rtacha uzunligining o'rtacha kengligiga nisbati 3:1 dan kam, ya'ni tahlil qilinayotgan substansiyaning kristallari plastinkasimon shaklda bo'lib, novdasimon va anizodimetrik ko'rinishdaligi aniqlandi (5-rasm).

«Giposedaf» quruq ekstraktning texnologik ko'rsatgichlarini aniqlash O'zR DF I nashri va DF XIV nashri (RF) da belgilangan usullar bo'yicha amalga oshirildi. Fraksion tarkibni aniqlash bo'yicha ushbu substansiyaning asosiy qismi, ya'ni 65,3% 250 mkmdan kichik bo'lgan zarrachalardan iboratligi aniqlandi.



a) 7x3,7=26

b) 15x20=300

c) 15x40=600

5-rasm. «Giposedaf» quruq ekstrakti namunasining turli kattalikdagi mikrografiyasi

1000 mkm dan katta bo'lgan zarrachalar atigi 1,9% ni tashkil qilgan bo'lsa, 1000+500 mkm li fraksiyada 10,5%, – 500+250 mkm li fraksiyada esa – 22,3% zarrachalar borligi aniqlandi. Demak, «Giposedaf» quruq ekstraktning polidispers kukuni bo'lib, asosan mayda zarrachalardan tashkil topgan. Sochiluvchanlik ko'rsatgichi vibrosilkitishsiz va vibrosilkitish bilan aniqlandi. Bunda mos ravishda quyidagi natijalar olindi: $0,85 \pm 0,09 \cdot 10^{-3}$ kg/s hamda $1,27 \pm 0,11 \cdot 10^{-3}$ kg/s. Sochiluvchanlik talab darajasida bo'lmaganligi sababli, tabiiy og'ish burchagi kabi texnologik ko'rsatgich ham salbiy natijalarni ko'rsatdi: u 54 ± 4 gradusga teng bo'ldi. «Giposedaf» quruq ekstraktning zichlanishga bo'lgan xususiyati $0,50 \pm 0,07$ sm³ ga teng bo'ldi. Quruq ekstraktlarning, ayniqsa kapsula shakli uchun tanlab olingan yana bir asosiy texnologik ko'rsatgichi bo'lgan sochiluvchan zichligi ham zichlanishdan avval va keyin tekshirildi hamda mos ravishda quyidagi natijalar olindi: $358,2 \pm 23,9$ kg/m³, $463,2 \pm 19,7$ kg/m³. «Giposedaf» quruq ekstraktning texnologik xossalarini aniqlash natijalarining ko'rsatishi bo'yicha ular salbiy bo'lib, kapsula shaklidagi BFQ ni yaratish uchun bir qator yordamchi moddalarni qo'shish hamda donadorlash bosqichini amalga oshirishni talab qiladi.

Farmakologlar tavsiyasi bilan «Giposedaf» quruq ekstraktning dozasi 300 mg

deb belgilandi. Sochiluvchan zichlik qiymatidan kelib chiqqan holda, № 0 o'Ichamli jelatina kapsulalaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi aniqlandi.

Kapsula shaklidagi BFQ uchun 20 dan ortiq tarkiblar sinab ko'rildi. 5-jadvalda tahlil jarayonida texnologik xossalari ijobiy qiymatga ega bo'lgan kapsulanadigan massalarning tarkiblari keltirildi. Yuqoridagilarni inobatga olib, kapsula uchun eng optimal massa T-3 tarkib deb tanlab olindi.

5-jadval

«Giposedaf» quruq ekstrakti asosidagi kapsula massasining texnologik ko'rsatgichlarini o'rganish natijalari

№	Tarkiblar	Sochiluvchanlik 10 ⁻³ kg/s	Sochiluvchan zichlik, kg/m ³	Tabiiy og'ish burchagi gradus	O'Ichami 0,2–0,5 mm fraksiya- larning ulushi %	Qoldiq nam- lik %	Parcha- lanishi, daq
1	«Giposedaf» QE 300 mg Laktoza monogidrat 57 mg Kalsiy karbonat 13 mg Kartoshka kraxmali 26 mg Magniy stearat 4 mg Etil spirti 70%	4,47± 0,88	447± 20,52	37,19± 1,08	82,12± 1,75	3,12± 0,27	12,8± 1,23
2	«Giposedaf» QE 300 mg Laktoza monogidrat 38 mg Makkajo'xori kraxmali 32 mg Aerosil 26 mg Magniy stearat 4 mg Etil spirti 70%	5,76± 1,08	569± 16,36	38,07± 1,68	91,17± 1,48	4,42± 0,44	11,69± 1,85
3	«Giposedaf» QE 300 mg Laktoza monogidrat 52 mg Aerosil 20 mg MKS (101) 24 mg Kalsiy stearat 4 mg Etil spirti 70%	5,18± 0,95	618± 20,21	35,15± 1,63	97,39± 1,08	4,12± 0,28	9,12± 0,22
4	«Giposedaf» QE 300 mg Laktoza monogidrat 24 mg Aerosil 30 mg MKS (101) 42 mg Magniy stearat 4 mg Etil spirti 90%	4,68± 0,78	612± 17,74	36,23± 1,69	92,28± 1,89	3,56± 0,19	10,87± 0,59
5	«Giposedaf»QE 300 mg Kalsiy karbonat 26 mg Aerosil 20 mg MKS (101) 50 mg Kalsiy stearat 4 mg Etil spirti 90%	4,03± 1,23	687± 18,19	40,02 ±1,28	87,7 ±0,68	4,25± 0,28	10,17± 0,43

«Giposedaf» quruq ekstraktining fizik-kimyoviy va texnologik xossalarini inobatga olgan holda, tanlab olingan tarkib bo'yicha kapsulalanadigan massani nam donadorlash usulida tayyorlash ma'qul deb topildi. Buning uchun «Giposedaf» quruq ekstrakti va keltirilgan to'ldiruvchi moddalar teshigining diametri 150 mkm

bo‘lgan elakdan o‘tkazib elandi va bir xil massa hosil bo‘lguncha aralashtirildi. Mo‘tadil namlikka ega massa hosil bo‘lguncha 70% etil spirt bilan purkaldi. Namlangan massani teshigining diametri 3000 mkm bo‘lgan elak orqali o‘tkazilib, quritgich javonida 40–50°C haroratda optimal namlik qolguncha quritildi va donadorlandi. Quritilgan donachalar teshiginig diametri 1000 mkm bo‘lgan elak orqali o‘tkazildi. Hosil bo‘lgan donachalar hisoblangan miqdordagi aerosil va kalsiy stearat aralashmasi bilan upalandi. Hosil bo‘lgan massa 400 mg 0 o‘lchamli kapsulalarga joylandi.

Quruq ekstrakt va kapsulanadigan massaning texnologik ko‘rsatkichlarini qiyosiy o‘rganish natijalariga asosan kapsulanadigan massa zarrachalarining o‘rtacha o‘lchamlari quruq ekstraktning ushbu ko‘rsatkichiga nisbatan kattalashgani aniqlandi. Kapsulanadigan massaning sochiluvchanligi ham ijobiy tomonga o‘zgardi. Ushbu ko‘rsatkich $1,27 \cdot 10^{-3}$ kg/s dan $5,18 \cdot 10^{-3}$ kg/s gacha oshdi. Xuddi shunday sochiluvchan zichlik ham ortdi ($358,2$ kg/m³ dan 618 kg/m³ gacha). «Giposedaf» quruq ekstraktning tabiiy og‘ish burchagi salbiy natijaga ega bo‘lgan bo‘lsa (54 gradus), kapsulanadigan massaniki ijobiy natija ko‘rsatdi (35,15 gradus). Shu bilan birga ekstraktning qoldiq namligi 4,95% tashkil qilgan bo‘lsa, kapsulanadigan massaning ushbu ko‘rsatkichi 4,12% gacha kamaydi (6-jadval).

6-jadval

Quruq ekstrakt va kapsulanadigan massaning texnologik xossalarini qiyosiy o‘rganish

O‘rganilgan ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Tahlil qilingan massalar	
		«Giposedaf» quruq ekstrakti	Kapsulanadigan massa
Fraksion tarkib, mkm	%		
+1000		1,96	6,2
-1000+500		10,51	29,7
-500+250		22,25	33,6
-250+160		48,36	20,2
-160		16,62	10,3
Sochiluvchanlik	10 ⁻³ kg/s	1,27	5,18
Sochiluvchan zichlik	kg/m ³	358,2	618
Tabiiy og‘ish burchagi	gradus	54	35,15
Qoldiq namlik	%	4,95	4,12

«Giposartaf» kapsulalari 10 daq 15 soniyada parchalandi, demak me‘yoriy hujjatlarda belgilangan chegara – 20 daqiqadan oshmadi. Kapsulaning o‘rtacha og‘irligi 0,954 undan chetlanish esa $\pm 5,7\%$ tashkil qildi; inkapsulalangan massaning og‘irligi esa 0,450 ga teng bo‘lib, chetlanish 1,4% bo‘ldi. Ya’ni massadan chetlanish

ko'rsatkichlari O'zR DF I nashrida keltirilgan 10% dan oshmadi. Rutinga nisbatan flavanoidlar yig'indisining miqdori belgilangan 2,0% dan kam bo'lmadi (2,55%).

Mikrobiologik tahlil natijalariga asosan «Giposartaf» kapsulalari O'zR DF I nashrining talablariga to'liq javob beradi, ya'ni Pseudomonas aeruginosa, Staphylococcus aureus, Escherichia coli oilasiga mansub bakteriyalar aniqlanmadi, aerob bakteriyalar va zamburug'lar soni belgilangan miqdordan (10^4 va 10^2) oshmadi. Olib borilgan izlanishlar natijasiga asosan gipotenziv ta'sirga ega quruq ekstrakt asosidagi «Giposartaf» kapsulalari sifat ko'rsatkichlari bo'yicha O'zR DF I nashri va DF XIV nashri (RF) talablariga javob beradi.

Dissertatsiyaning «Quruq ekstrakt va uning asosida olingan BFQ ning yaroqlilik muddatini aniqlash» deb nomlangan to'rtinchi bobida quruq ekstrakt va kapsula shaklidagi BFQ ning turg'unligini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar keltirilgan. Ushbu tajribalar uzoq muddatli usul yordamida turli qadoqlash materiallaridan (quruq ekstrakt uchun – 3 xil, BFQ uchun – 2 xil) foydalangan holda olib borildi. Aniqlanishicha, barcha turdagi qadoqlash materiallari gipotenziv ta'sirli quruq ekstrakt va kapsula shaklidagi BFQning sifat va miqdor ko'rsatkichlarining doimiyligini 2 yil davomida saqlashga imkon beradi.

XULOSALAR

1. Gipotenziv ta'sirga ega quruq ekstrakt olishda ekstraksiya jarayoniga ta'sir etuvchi omillar o'rganilib, 70% etil spirti optimal ajratuvchi sifatida tanlab olindi. O'simlik xomashyolarining maydalik darajasi 4–6 mm, gidromodul 1:9 nisbatda, ekstraksiya jarayoni xona haroratida 9 soatni tashkil etdi. Olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan ekstrakt texnologiyasi MCHJ «Samarkand-England Eco-Medical» qo'shma korxonasida sanoat sharoitida muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazildi.

2. Olingan quruq ekstraktning sifat ko'rsatkichlari O'zR DF I nashri va European Pharmacopoeia, 9 th edition («Extracts») talablariga muvofiq baholandi. Ekstrakt tarkibidagi flavanoidlar yig'indisining rutin va lyuteoninga nisbatan miqdori 2%, fenol kislotalarining gall kislotasiga nisbatan 0,01%, glikozidlarning glitsirringa nisbatan 0,001% dan kam bo'lmashligi belgilandi.

3. «Giposedaf» quruq ekstraktida umumiy aminokislotalar 29,15 mg ni tashkil qildi. Bundan 46,5% almashinmaydigan va 53,5% esa almashinadigan aminokislotalardir. Quruq ekstraktning makro- va mikroelementlar tahlili 61 ta element mavjudligini ko'rsatdi, shu bilan birga og'ir metallar va margimushning miqdori Sanitariya-epidemiologiya qoidalari va me'yorlari hamda O'zR DF I nashri talablarida belgilangan chegaradan oshmagani isbotlandi.

4. Kapsula shaklidagi BFQ tarkibini tanlash maqsadida turli yordamchi moddalar qo'llanildi va natijada quruq ekstraktning tashqi muhitning namligi va namuna yuzasiga bog'liq bo'lgan yuqori gigroskopiklik xususiyatini kamaytirib, me'yorga yetkazish imkonini berdi. Shuningdek, kapsulanadigan massaning sochiluvchanligi ($1,27 \cdot 10^{-3}$ kg/s dan $5,18 \cdot 10^{-3}$ kg/s gacha), sochiluvchan zichligi ($358,2$ kg/m³ dan 618 kg/m³ gacha) va tabiiy og'ish burchagi (54 gradusdan 35,15 gradusgacha) ijobiy tomonga o'zgargani aniqlandi. Ushbu tarkib bo'yicha kapsula texnologiyasi taklif etildi.

5. Quruq ekstraktning klinik oldi tadqiqotlari «METHPARM» MCHJ da o‘tkazildi. Olingan natijalarga ko‘ra quruq ekstraktning gipotenziv, sedativ va diuretik faolligi isbotlandi. «Giposedaf» quruq ekstrakti va uning asosida olingan kapsula shaklidagi BFQning yaroqlilik muddati 2 yil deb belgilandi.

6. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, «Giposedaf» quruq ekstrakti bo‘yicha korxonada farmakopeya maqolasi ishlab chiqilgan va O‘zR SSV huzuridagi «Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi Markazi» Davlat muassasasiga ko‘rib chiqish uchun topshirildi.

«Giposartaf» biologik faol qo‘shimcha uchun Texnik shartlar (TSh 310619568-004:2024) va Texnologik yo‘riqnoma (TY 310619568-004:2024) ishlab chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi tomonidan tasdiqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSC.04/30.12.2019.FAR.32.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

ТАШКЕНТСКИЙ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

САФАРОВА ДИЁРА ТОЛИБОВНА

**ПОЛУЧЕНИЕ СУХОГО ЭКСТРАКТА ГИПОТЕНЗИВНОГО
ДЕЙСТВИЯ И РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ КАПСУЛ НА ЕГО
ОСНОВЕ**

15.00.01 – технология лекарств

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.4.PhD/Far74

Диссертация выполнена в Ташкентском фармацевтическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.pharmi.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Максудова Фируза Хуршидовна
доктор фармацевтических наук, доцент.

Официальные оппоненты: Назарова Зарифа Алимджановна
доктор фармацевтических наук, профессор,
Халилов Равшанжон Муратджанович
доктор технических наук, старший научный сотрудник.

Ведущая организация: Государственное учреждение «Центр безопасности фармацевтической продукции».

Защита диссертации состоится «29» Октября 2024 года в 15⁰⁰ часов на заседании научного совета DSc.04/30.12.2019.Far.32.01 при Ташкентском фармацевтическом институте (Адрес: 100015, г. Ташкент, Мирабадский район, ул. Айбека, 45. Тел.: (+99871) 256-37-38; факс: (+99871) 256-45-04; e-mail: info@pharmi.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ташкентского фармацевтического института (регистрационный номер 62). Адрес: 100015, г. Ташкент, Мирабадский район, ул. Айбека, 45. Тел.: (+99871) 256-37-38.

Автореферат диссертации разослан «15» Октября 2024 года.
(Реестр протокола рассылки № 62 от «15» Октября 2024 года).



К.С.Ризаев
Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней, д.м.н.

Ё.С. Кариева
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, д.фарм.н.,
профессор.

Ф.Ф.Урманова
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению ученых
степеней, д.ф.н., профессор.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Согласно исследованию, проведенному в сотрудничестве со Всемирной организацией здравоохранения, за последние 40 лет количество людей, страдающих высоким артериальным давлением в мире, увеличилось почти в два раза и достигло 1,1 млрд. человек. При этом, согласно статистическим данным, 80% больных принимают препараты, обладающие седативным и гипотензивным действием, полученные из растительного сырья. В связи с этим важное значение имеет разработка технологий новых, гипотензивных лекарственных средств на основе местного лекарственного растительного сырья, применяемого при лечении данного заболевания, осуществление контроля их качества, определение фармакологической активности и безвредности, а также внедрение в медицинскую практику.

В мировой фармацевтической практике проводятся научные исследования по расширению ассортимента современных лекарственных средств, биологически активных добавок с седативным и гипотензивным действием на основе лекарственного растительного сырья, оформлению нормативных документов для их регистрации в вышестоящих организациях, внедрению полученной продукции в практику предприятий-производителей. В связи с этим особое внимание уделяется исследованиям, направленным на научное обоснование состава и технологии оригинальных лекарственных средств сложного состава растительного происхождения, определение норм качества в соответствии с международными требованиями, обеспечение терапевтической эффективности, безвредности и стабильности.

В нашей республике достигаются определенные результаты по фармакологическому скринингу местных лекарственных растений, созданию комбинаций оптимального состава, применяемых при различных заболеваниях, выделению из них биологически активных веществ в виде экстрактов в различных агрегатных состояниях, а также разработке технологии препаратов и биологически активных добавок в удобных для применения формах. В 22-й цели Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы поставлены такие важные задачи, как «Увеличение объема производства продукции фармацевтической промышленности в 3 раза и доведение уровня обеспечения местного рынка до 80 процентов.»² В связи с этим важное значение имеет расширение номенклатуры экономически выгодных фармацевтических продуктов, используемых при лечении сердечно-сосудистых заболеваний и гипертонии на основе местного растительного сырья, их стандартизация на основе международных требований, доказательство фармакотерапевтической активности и налаживание производства фармацевтическими предприятиями.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит

² Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы»

выполнению задач, предусмотренных Постановлениями Президента Республики Узбекистан № ПП-251 от 20 мая 2022 года «О мерах по организации культурного выращивания, переработки и широкого использования лекарственных растений в лечении», № ПП-411 от 26 октября 2022 года «О дополнительных мерах по обеспечению населения качественными лекарственными средствами и изделиями медицинского назначения», Указом Президента Республики Узбекистан № УП-55 от 21 января 2022 года «О дополнительных мерах по ускоренному развитию фармацевтической отрасли республики в 2022–2026 годах», а также другими нормативно-правовыми документами, принятыми в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики VI. «Медицина и фармакология».

